


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 662,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 420,1 mln. AQSh dollarga va import hajmi 242,0 mln. AQSh dollariga etdi. Tashqi savdo saldosini 178,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, oktabr oyiga nisbatan 7,9 mln. AQSh dollarga ko'proq eksport qilindi va 36,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovlar va xizmatlar importi hajmi esa 36,7 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa oktabr oyiga nisbatan 8,2 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Rossiya	171,6	123,4	48,2	25,9	128,0
Xitoy	150,4	100,7	49,7	22,7	91,5
Turkiya	105,7	90,2	15,5	16,0	88,5
Qozog'iston	63,1	50,9	12,2	9,5	148,5
Koreya Respublikasi	42,8	7,9	34,9	6,5	152,1
Latviya	28,4	23,3	5,1	4,3	73,5
Ukraina	21,7	3,2	18,5	3,3	2,4 k
Germaniya	11,1	0,5	10,6	9,5	3,5 k
Shvetsariya	9,4	-	9,4	1,4	25,9 k
Vietnam	6,8	1,0	5,8	1,0	10,9 k
Yaponiya	5,3	-	5,3	0,8	4,1 k
Estoniya	4,9	3,5	1,4	0,7	2,5 k

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,2 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,0 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-noyabr oylarida 67,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 59,8 %ga etdi.

EKSPORT

2018 yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 420,1 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (88,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (6,4 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti ulushi (%)



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	420,1	100,0	100,0	183,6	124,5	100,0	236,5	86,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	27,0	116,6	6,4	4,2	120,0	2,3	22,8	116,3	9,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	370,7	101,8	88,2	174,8	130,7	95,2	195,9	85,0	82,8

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	8,2	78,5	2,0	1,3	6,5 k	0,7	6,9	67,0	2,9
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	10,4 k	-	0,1	-	0,1	0,1	-	0,1
Xizmatlar	2,2	101,5	0,5	1,5	93,7	0,8	0,7	140,0	0,3
Boshqalar	11,9	108,8	2,8	1,7	32,7	0,9	10,1	180,4	4,3

Xizmatlar eksporti hajmi 2,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 %ga o'sganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (41,3 %), safarlar (31,6 %), transport xizmatlari (16,0 %) va qurilish xizmatlari (10,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida jami 17,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 4,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 16,2%). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 15,0 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 2,6 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,2 ming tonna meva va rezavorlar 1,0 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming tonnaga kamaygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 3,6 mln.AQSh dollariga etdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,2 %ga o'sgan).


Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	5,4	1,7	46,2	16,0	3,4	76,6
Rossiya	2,0	1,3	34,4	0,8	0,6	12,7
Pokiston	-	-	-	0,3	0,2	4,4
Afg'oniston	0,2	0,2	4,7	0,2	0,1	2,4

IMPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 242,0 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 44,5 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (49,0 %) va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (14,5 %) guruhlariga hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi ulushi (%)



Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	242,0	144,5	100	82,8	182,0	100	159,2	130,6	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	10,8	3,9 k	4,5	10,5	8,1 k	12,7	0,3	20,0	0,2

Kimyo mahsulotlari va buyumlari	35,2	115,2	14,5	4,1	100,0	5,0	31,1	117,8	19,5
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	5,4	119,2	2,2	1,3	3,2 k	1,6	4,1	97,6	2,6
Qora va rangli metallar	5,7	105,9	2,4	2,7	103,8	3,3	3,0	107,1	1,9
Mashina va asbob-uskunalar	118,5	153,2	49,0	23,4	2,6 k	28,3	95,1	139,2	59,7
Xizmatlar	13,4	176,6	5,5	4,5	2,5 k	5,4	8,9	153,4	5,6
Boshqalar	53,0	135,1	21,9	36,3	138,0	43,8	16,7	128,5	10,5

Xizmatlar importi hajmi 13,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,5 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,6 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish bo'yicha xizmatlari (72,9 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (24,8 %)dan iborat bo'ldi.